



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### MAKTABGACHA TA'LIMDA MODDIY TEXNIKA JIHOZLARIDAN FOYDALANISH

**Zokirova Shaxnoza**

*Alfraganus university talabasi*

**Xudayberganov Otaxon**

*O'zbekiston Respublikasi Talimni rivojlantirish  
respublika ilmiy metodik markaz bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion tavlīm texnologiyalaridan unumli foydalanish hamda multimedīya vositalarini foydalanishning ta'lim sifatiga ta'sir, afzalliklari yoritib berilgan bo'lib tarbiyachilar hamda shu yo'nalishdagi ustozlar uchun o'qishga tavsiya etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *texnika, moddiy-texnik baza, innovatsion pedagogik texnologiyalar, umumiy kompetensiyalar, progressiv ilmiy texnik yutuqlar.*

XXI asr texnika va texnologiyalar asri. Bu zamonda yangiliksiz, izlanishsiz, yaratuvchanliksiz inson mustaqil individ sifatida hayotda o'z o'rniga ega bo'lolmaydi. XXI asr texnika va texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda har bir oilada texnik qurilmalar – masalan, mobil telefonlari, televizor, kompyuter, planshet va boshqalar kundalik iste'molda keng qo'llanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, kichik yoshdagi bolalar kattalarga nisbatan bu qurilmalardan tez va oson foydalanishadi. Ammo, maqsadga yo'naltirilganlik darajasi juda oddiy. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini to'liq texnologiyalar bilan ta'minlanish bosqichiga o'tilmoqda.

Bu esa ta'limda ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy texnologiyalar asosida foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar uchun o'yin dasturlarining bilimga qaratilgan turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, bugun barcha texnik vositalar bizning qo'limizdagi eng yaxshi qurol, bilimlar manbai hamda imkoniyatlar kalitidir. Faqat, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridanoq undan to'g'ri va ongli foydalanish, ma'naviyatimizni yuksaltirishga qaratilgan uzluksizlik va uzviylik asosidagi dasturlar yaratishga loqayd bo'lmasakgina bu hamkorlik porloq istiqbolga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning qiziqishi inobatga olingan holda hatto aniq bir yo'nalish bo'yicha ularni guruhlariga ajratish va ma'lum sohaga yo'naltirish mumkin. Alohida guruh tashkil qilinishi yoshligidanoq ma'lum sohalarga qiziquvchan bolalar bilan ishlash maqsadini ham osonlashtiradi. Bunda bolalar ruhiyatiga, kayfiyati hamda qiziqishlariga hatto ularning bir xildagi kiygan kiyimlari ham ta'sir qilishi nazarda tutilsa, kichkintoylarda o'ziga bo'lgan ishonch, faxr tuyg'ulari yanada barqarorlashuvini yaqqol sezamiz. Masalan, bo'lajak vatanparvar



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

bolajonlarning barchasi kichkintoy harbiylarga xos kiyimda bo'lishi o'zilariga ham katta zavq, mas'uliyat bag'ishlaydi

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'rgazmali tasavvur orqali anglash davrida bo'lganligi bois, barcha yangi bilimlar ko'rgazmalilikka asoslanadi. Bu yoshdagi bolalar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar sifatida interfaol metodlardan tarbiyachilar unumli foydalanadilar.<sup>16</sup>

*Chunki mazkur metodlardan foydalanish orqali har bir bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyon eta oladi;*

★ *mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi;*

★ *atrof-muhit hodisalari haqida aniq tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi;*

★ *bolani ham ruhan, ham jismonan rivojlantirishda xizmat qiladi;*

★ *bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yib, uni amalga oshirishga o'rgatadi; qiyin vaziyatlar tu'g'ilganda mustaqil ravishda muammoga yechim topishga o'rgatadi.*

Shu bilan birgalikda bolalarning nutqini ravon bo'lishida, o'z fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish imkoni yaratiladi. Interfaol metodlar mazmuniga ko'ra bolalar faol o'zaro ta'sir qilish sharoitida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Birgalikdagi faoliyatdan zavq oluvchi bolalar uchun bunday usullar yangi bilimlarni egallashda qiziqarli va tassurotga boy bo'lishini ta'milaydi. Faqatgina tarbiyachi ushbu usullarni bolalarning o'ziga xos xususiyatlari va yosh jihatlariga moslashtirgan holda foydalanishi lozim. Bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" davlat dasturida bolaning umumiy va rivojlanish sohasi kompetensiyalarining muhim yo'nalishlari belgilab berilgan. Unga ko'ra maktabgacha 6-7 yoshdagi bolaning umumiy kompetensiyalari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatildi:

➤ **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

<sup>16</sup> Sh.Fayzullaev. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya Maktabgacha ta'lim jurnali.T.,2018yil,12-son.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

- O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
- Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan axloq-odob normalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.
- Bilish kompetensiyasi – atrof-muhitni ongli ravishda idrok qila olish va bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilishda foydalanish.<sup>17</sup>

Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir. Ta'lim tizimini innovatsion faoliyatga o'tkazishni eng avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tatbiq qilish lozimdir. Chunki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, bolalarni har tomonlama yetuk va ijodkor, vatanni sevuvchi, bilimli va ilmli qilib tarbiyalash albatta maktabgacha ta'lim tashkilotining zimmasiga tushadi. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda, ularni maktabga tayyorlashda innovatsion multimediya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rnini innovatsion jarayonlar egallamoqda. Innovatsiya o'z nomi bilan yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Shu boisdan ham ta'lim va tarbiya jarayonida yangiliklarni kiritishning o'rne beqiyosdir.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi.<sup>18</sup> jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan

<sup>17</sup> V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost'» - M. 1997

<sup>18</sup> V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost'» - M. 1997



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi.

O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog'liq turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyadir.<sup>19</sup> mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Bunday usullar bolajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, oquvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yonaltirilgan bolishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.<sup>20</sup> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlashda multimediyaga texnologiyasidan foydalanishning tub mazmuni, multimediyaga asoslangan kompyuterli ta'lim bo'lgani uchun, birinchi navbatda tahlilni kompyuterning ta'lim jarayoniga kiritib kelishidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga insegratsiyasi ta'lim sohasida nafaqat yangi imkoniyatlarni ochdi, balki o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berishda yuqori sifatga erishishni ta'minlashni taqqozo etmoqda. Bundan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash, bunda, albatta ta'lim sohasida erishilgan boy tajriba, progressiv ilmiy texnik yutuqlar, zamonaviy ta'limiy, axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanish lozim. Bugungi kunda chuqur bilimga ega, yetuk malakali maktabgacha ta'lim tarbiyachisidan o'quv materiallarini bolalarga

<sup>19</sup> <https://uz.unistica.com> Montessori metodikasi

<sup>20</sup> I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi Toshkent 2018 9-10 betlar



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

yetkazishning eng qullay, ratsional usullarini topishi, bu yo'nalishda ijodiy yondashish bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib topishiga e'tibor qaratilishini talab etadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonini multimedia vositalari asosida tashkil etishda alohida ahamiyat berilyapti. Multimedia vositalariga birinchi navbatda, elektron darsliklar kompakt disklar, video-audio tasmlar, turli taqdimotlar kiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishdagi masalalardan yana biri ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish, unga ishlanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish zarurligidir.<sup>21</sup> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni o'rganish, texnologiyalarni tadbiq etishda bolalar yoshini hisobga olish va mos holda didaktik materiallarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish kabi jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalari ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan: multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimedia kompyuteri; multimedia dasturi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimedia bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida matnli, tasviriy axborotni tovush va harakatli holda ifodalash imkoniyatidir. Multimedia tasvirli ma'lumot bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. Multimedia kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvir va turli animatsiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat'iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Mamlakatimizdagi deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o'z navbatida, tarbiyachilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, tarbiyachini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning

<sup>21</sup> I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasining davlat o'quv dasturi Toshkent 2018 9-10 betlar



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

vazifasi va rolini o'zgartirib, tarbiyachilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 maydagi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risidagi PQ-4312- sonli Qarori.
2. Sh.Fayzullaev. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya Maktabgacha ta'lim jurnali. T., 2018 yil, 12-son.
3. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodiev R.R. Axborot texnologiyalari. T.: O'qituvchi
4. <http://ma'rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020
5. V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost'» - M. 1997
6. <http://arxiv.uz> referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
7. <https://uz.unistica.com> Montessori metodikasi
8. I.V.Grosheva, L.G.Evstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixanova, S.B.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi Toshkent 2018 9-10 betlar